

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMI TAMOYILLARI

**Andijon davlat pedagogika instituti
Tayanch doktorant
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o’g’li**

Annotatsiya: ECTS kredit - modul tizimi muayyan tamoyillari. Talabaga yo’naltirgan ta’limni tashkil etish (student-centered education). Ta’limda shaffoflikka erishish (transparent education). Ta’limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi (improving flexibility). Talabalar mobilligini kuchaytirish (improving student mobility).

Kalit so’zlar: ECTS kredit, shaffoflik, moslashuvchanlik, mobillik, ta’lim, baholash, tizim, kredit-modul, dars, o’qituvchi, talaba.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha OTMlar kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Ma’lumki, hayotda ko‘p narsalarning o‘lchov birligi mavjud. Masalan, vaqt o‘lchov birligi – sekund, uzunlik o‘lchovi – metr, og‘irlik– kilo, suyuqlik – litr, elektr kuchlanish o‘lchovi – amper. Shunda bir savol tug‘iladi: ta’limning, xususan oliy ta’limning ham o‘lchov birligi bormi? Aytishingiz mumkin, ha oliy ta’limning o‘lchov birliklari bu bakalavr, magistratura va doktorantura deb. Lekin bular ta’limning o‘lchov birliklari emas balki uning bosqichlari hisoblanadi. Afsuski, hozirda mamlakatimizda oliy ta’limning talabalar progressini, ularning mutahasis sifatida shakllanishini muntazam ravishda baholab boruvchi hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligi mavjud emas.

ECTS kredit - modul tizimi muayyan tamoyillar asosiga qurilgan. Ular quyidagilar:

- 1) Talabaga yo’naltirgan ta’limni tashkil etish (student-centered education);
- 2) Ta’limda shaffoflikka erishish (transparent education);
- 3) Ta’limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi (improving flexibility);
- 4) Talabalar mobilligini kuchaytirish (improving student mobility).

Quyida har bir tamoyil tafsilotlariga qisqacha to‘htalib o‘tamiz.

a) Talabaga yo’naltirilgan ta’limni tashkil etish

Ta’lim tizimlarini odatda ikki toifaga bo‘lish mumkin: o‘qituvchiga yo’naltirilgan va talabaga yo’naltirilgan ta’lim. Ularni oddiy qilib quyidagicha tasvirlash mumkin:

O‘qituvchiga yo’naltirilgan ta’lim tizimida ta’limga, o‘quv dasturlariga, dars jarayonlariga qat’iy ravishda OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot va o‘qituvchi hohishi nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunda talabalar nimani, qancha, qanday usulda o‘rganishi kerakligi masalalarini belgilashda mehnat bozori vakillari va talabalarning ehtiyojlar, fikrlari ko‘p ham e’tiborga olinmaydi. Ta’lim jarayonini boshqarish va tashkil etish ancha markazlashgan tarzda amalga oshiriladi.

Bunda yana o‘qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaraladi. Talabalar asosan nafaol tinglovchi sifatida shakllanadi, chunki ta’lim jarayonlari ularni faollikka undamaydi (darslar asosan ma’ruza shaklida tashkil etiladi). Bunday ta’lim tizimida talabalarda mustaqil

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

fikrlash, o‘z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o‘zlari uchun o‘zlari qaror qabul qilish saloxiyatlari shakllanmaydi.

Talabaga yo‘naltirilgan ta’lim ECTS kredit – modul tiziming quyidagi qoidalarida o‘z aksini topgan:

- **Ta’lim olish vaqti tushunchasi talabaning darsda o‘tirgan vaqti bilan emas balki uning fan bo‘yicha o‘qish va o‘rganishga sarflagan umumiy vaqtdan kelib chiqib belgilanadi.** Bunda talabaning ta’limi o‘qituvchining “o‘rgatish” uchun sarflagan soatlaridan kelib chiqib emas balki talabaning “o‘rganish” uchun sarflagan soatlaridan kelib chiqib o‘lchanadi. YA’ni 1 kredit o‘zida 25-30 soat o‘qish yuklamasini aks ettirsa, u o‘z ichiga talabaning fanni o‘zlashtirish bo‘yicha u auditoriya va auditoriyadan tashqarida sarflagan umumiy vaqtini qamrab oladi.


- **O‘quv dasturlari va o‘quv rejaları ta’limdan kutilayotgan aniq o‘qish natijalari asosida shakllantiriladi.** YA’ni OTM o‘quv dasturlarini va o‘quv rejalarini yaratish jarayonida o‘z oldiga talaba mazkur o‘quv dasturi so‘ngida nimalarni bilishi, tushunishi va qila olishi kerak degan savollarni qo‘yadi va o‘quv dasturlarni shu savollarning javoblari asosida shakllantiradi. O‘qish jarayonlari ancha maqsadli tashkil etiladi. Bunda OTM faoliyatiga u talabalarga nimalar “o‘rgatilganligi” ga qarab emas, balki talabalar undan nimalarni “o‘rganganligi” ga qarab baholanadi. Bunda yana OTMlarning vazifasi talabalarga nafaqat bilim berish, balki ularda ko‘nikma va mahoratlar shakllantirish ham ekanligi belgilgan.

b) Ta’limda shaffoflikka erishish

ECTS kredit – modul tizimi talabalarning ta’lim jarayonlariga taaluqli bo‘lgan barcha ma’lumotlarni talabalarga oldindan, tushunarli, to‘liq va shaffof tarza etkazishni talab qiladi. Bunda OTM talabalarga ular butun o‘qishlari davomida qaysi fanlarni o‘zlashtirishlari zarur yoki mumkinligi, ulardan kutilayotgan o‘qish natijalari, talabalar qanday usul va me’zonlar asosida imtihon qilinishlari haqida oldindan to‘liq va shaffof tarzda ma’lumot berishi kerak bo‘ladi. OTMlar sonining ko‘payishi, o‘quv dasturlariga tanlov fanlarini kirib kelishi ham ta’limda shaffoflikka bo‘lgan extiyojni yanada kuchaytiradi. ECTS kredit – modul tizimida ta’lim shaffofligi ta’minlash quyidagi qoidalarda o‘z aksini topadi:

- **O‘quv dasturidagi har bir fanni ma’lum miqdordagi kreditlarda aks ettiriladi.** YA’ni har bir kredit o‘rtacha 25-30 soat o‘qish yuklamasini anglatishini hisobga olinsa, talaba muayyan fanga taqsimlangan kreditlar miqdoriga qarab, ushbu fanning o‘qish yuklamasi haqida dastlabki ma’lumotga ega bo‘ladi.

- **O‘quv dasturidagi har bir fan muayyan ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan holda kodlanadi.** O‘quv dasturida har bir fan uning darajasi, boshqa fanlar bilan



“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

aloqadorligi, tanlov yoki majburiy fan ekanligi va shu kabi ma’lumotlarni o’zida aks ettirgan holda kodlanadi va bu kodlar mazmuni haqida talabalarga tushuntiriladi.

• **O’qituvchilar tomonidan o’z fanlari bo’yicha fan dasturlarini tayyorlanishi va talabalarga taqdim etilishi.** ECTS kredit – modul tizimida har bir o’qituvchi OTM o’quv dasturdagi u o’qitishi kerak bo’lgan har bir fani bo’yicha “fan dasturini” ishlab chiqadi va uni semestrning dastlabki haftasida halabalarga taqdim etadi.

c) Ta’limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi

YUqorida ta’kidlaganimizdek, ECTS kredit – modul tizimi OTMLar o’zlarining o’quv dasturlarini ishlab chiqishda muayyan qoidalarga amal qilishni talab etadi. Bu degani o’quv dasturlari, o’quv rejalari OTM darajasida tayyorlanadi. Bu oliy ta’limni boshqarishning markazlashgan tizimiga qaraganda ancha samarali, rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan usullaridan biridir. CHunki OTMLar individual tarzda zamon, mehnat bozori talablariga tezroq moslashish, ushbu ehtiyojlarga tezroq javob qaytarish imkoniyatiga ega bo’ladi.

d) Talabalar mobilligini kuchaytirish

ECTS kredit – modul tizimida faoliyat yuritadigan OTMLar ta’limni tashkil etish, uni hisobini yuritish bo’yicha standard tamoyillar asosida ishlaganligi, ta’lim jarayonlari shaffoflikka asoslanganligi tufayli talabalar bir OTMda qo’lga kiritgan kreditlari boshqa OTMda tan olinishi imkoniyati kengayadi. SHu tufayli ECTS kredit – modul tizimiga o’tgan va uning tamoyillariga (tom ma’noda) amal qilayotgan OTMLarning halqaro jozibadorligi oshadi. Ularning xorijiy OTMLar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi”
2. European Commission ECTS Guide of 2004. Available at https://www.uc.pt/ge3s/pasta_docs/ects-users-guide170804.pdf
3. European Commission ECTS Guide of 2015. Available at https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/ects-users-guide_en.pdf
4. Jessica Shedd (2003), "The History of the Student Credit Hour". New Directions for Higher Education.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”, 1-илоvasи, 9банди.